

"O'zavtoyol" AK Boshqaruvining 2016 yil I yarim yillik yakunlari bo'yicha yig'ilishi



2016 yilning 26 iyul kuni "O'zavtoyol" AK majlislar zalida kompaniya boshqaruvining 2016 yil I yarim yillik yakunlari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda kompaniya tizimidagi hududiy bo'linmalar, sohaviy korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi. Yig'ilishni kompaniya boshqaruv raisi A.Abduvaliev olib bordi.

Dastlab, joriy yil davomida yo'l xo'jaligi korxonalaridan avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash ishlari Prezidentimiz va Hukumat tomonidan belgilab berilgan dasturlar doirasida olib borilayotgani xususida so'z yuritildi.

So'ng e'tiborni joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalarga qaratildi. Yig'ilishda ta'kidlanganidek, "O'zavtoyol" kompaniyasi korxonalaridan 2016 yilning I yarim yilligi davomida jami **575,0 mlrd.so'm**lik yo'l qurilish, ta'mirlash, saqlash va tashqi pudrat ishlari bajarildi. Mazkur ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan **110,2 %** ni tashkil etdi.

Investitsiya dasturi bo'yicha joriy yilning I yarim yilligida jami **442,2 mlrd.so'm** miqdoridagi rekonstruksiya ishlari bajarilib, **157,6 km** uzunlikdagi avtomobil yo'llari to'liq rekonstruksiya qilindi. Jumladan, O'zavtoyol kompaniyasi korxonalaridan **182,8 mlrd.so'm**lik yo'l ishlari bajarilib, **62,1 km** uzunlikdagi avtomobil yo'llari rekonstruksiya qilindi.

Mazkur ko'rsatkich shartnomaviy majburiyatga nisbatan **103,8%**ni tashkil etdi.

Kapital ta'mirlash dasturi bo'yicha xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida "O'zavtoyol" kompaniyasi korxonalaridan va tashkilotlaridan **44,6 mlrd.so'm**lik yo'llarni mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, **25,0 km** uzunlikdagi avtomobil yo'llari ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. Mazkur ko'rsatkich shartnomaviy majburiyatga nisbatan **106,2%** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, kompaniya korxonalaridan umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari bo'yicha joriy yilning I yarim yilligida **324,0 mlrd.so'm** miqdoridagi yo'l ishlari bajarildi. Jumladan, joriy ta'mirlash ishlarida – **208,3 mlrd.so'm**lik, saqlash, qishki qarov va ko'kalamzorlashtirish ishlarida – **115,7 mlrd.so'm**lik ishlar bajarildi, hamda **1040 km** dan ortiq umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarining holati yaxshilanishi ta'minlandi.

Shuningdek, hisobot davrida kompaniya korxonalar va tashkilotlari tomonidan jami **132 tayangi ish o'rinlari** (I yarim yillik prognoziga nisbatan **121,1 %**) ochilishi ta'minlandi.

Shu bilan bir qatorda, yig'ilishda tizim korxonalar tomonidan 2016 yilning II yarim yilligida amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb va ustuvor masalalarga to'xtalib o'tildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 martdagi PQ-2313-sonli, hamda 2015 yil 25 dekabrda PQ-2458-sonli qarorlari bilan belgilangan dastur doirasida hamda sohaga oid boshqa qarorlar ijrosini ta'minlash bo'yicha joriy yilning II yarim yilligida "O'avtoyol" kompaniyasi tomonidan **375,2 mlrd.so'mlik** rekonstruktsiya va kapital ta'mirlash ishlari bajarilishi rejalashtirilganiga alohida e'tibor qaratildi. Unga ko'ra joriy yilning ikkinchi yarmida:

- Investitsiya dasturi bo'yicha **280,1 mlrd.so'mlik**, jami **114,2 km** uzunlikdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari rekonstruktsiya qilinadi;

- Kapital ta'mirlash dasturi bo'yicha **95,1 mlrd.so'mlik**, jami **81,9 km** uzunlikdagi avtomobil yo'llari to'la ta'mirlanadi.

- Shuningdek, kompaniya tizimidagi korxonalar tomonidan

154,0 mlrd.so'mdan ortiq joriy ta'mirlash va **97,4 mlrd.so'mlik** ekspluatatsiya ishlari bajarilib, umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarining texnik holati yaxshilab boriladi.

Yig'ilish davomida sohadagi yo'l qurilishi va uning ta'miridagi sifatga e'tibor qaratish, tizimdagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, pudratchi korxonalar yonilg'i moylash mahsulotlarining yetkazib berilishi kabi masalalarga tanqidiy yondashilib, mavjud muammolarni ijobiy hal etish yo'llari muhokama qilindi.

Boshqaruv yig'ilishi yakunida ko'rilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

"O'avtoyol" AK matbuot xizmati